Mehmonxona restoranlarida xodimlar malakasini oshirish tizimi va ularning samaradorlikka ta'siri	954
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy asoslari va mamlakatimizda yaratilgan shart-sharoitlar	958
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	



Yog'-moy korxonalari personalini boshqarishning ahamiyatli jihatlari.....	963
Azlarova D.A.	
Mahalliy budget daromadlari bazasini kengaytirishda hokimliklarning vakolatlarini oshirish masalalari.....	967
Tuychiev Kamoliddin	
O'zbekiston yengil sanoat korxonalarida marketing strategiyalari	974
Bazarova Fayyoza Tuxtamurodovna	
Innovative technologies of modern accounting and their impact on efficiency	979
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Роль телекоммуникации в экономике Республики Узбекистан	983
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
Роль финансов в Узбекистане на современном этапе	987
Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи	
Mahalliy budjetlarni boshqarish va tuzish tartibi	992
Qo'ldoshev Diyor O'rol o'g'li	
Elektron tijoratni soliqqa tortish ma'muriyatchiligini takomillashtirish yo'nalishlari.....	997
Urazaliyev Kamoliddin Tajikovich	
Soliq xulq-atvorini shakllantirishda davlat dasturlari va vositalarining roli.....	1003
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
O'zbekiston bank tizimini rivojlantirishda raqamli banklarning ulushi.....	1011
O'lmasov Abdurahmon Aziz o'g'li	
Digital neighborhood frameworks in community-centric urban infrastructure planning	1019
Gulsara Ostonaikulova, Sitora Odilova	
Sug'urtada investisiya faoliyati samaradorligini oshirish	1026
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	
Анализ результатов инструментальных методов исследований у детей с врожденными пороками сердца.....	1031
Мухаммадиева Лола Атамурадовна	
Moliya tizimida davlat nazoratini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	1039
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga investitsiyalar jalb etishdagi konseptual jihatlari.....	1043
Karimova Komila Daniyarovna	
Buxoro viloyatida biologik xilma-xillikni asrash: iqtisodiy tahlil va ustuvor yo'nalishlar.....	1048
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich	
Hududda raqobatdosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish	1053
Sattorov Quvonchbek Shoxzamonovich, Ollokulova Feruza Mansurovna	
Mehnat huquqi nuqtayi nazaridan gid va ekskursovodlar faoliyatini tartibga solish masalalari.....	1058
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Ensuring corporate financial stability through the use of digital technologies.....	1063
Xusanova Dilorom Shavkatovna	
Ikkiyoqlama soliqqa tortishga qarshi kurashishning yevropa davlatlari amaliyoti.....	1068
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	



IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHGA QARSHI KURASHISHNING YEVIROPA DAVLATLARI AMALIYOTI

Rajapov Shuxrat Zaripbayevich

I.f.n. (PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
mustaqil izlanuvchi
Science ID:FXR-0525-0021,
ORCID 0000-0002-4464-1542

Annotatsiya: Mazkur maqolada ikkiyoqlama soliqqa tortishga qarshi kurashishning Yevropa davlatlari amaliyoti tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: xalqaro soliq normalari, ikkiyoqlama soliqqa tortishga qarshi kurashish metodlari, soliq yuki, dividend, soliq krediti, iqtisodiy mazmun ustuvorligi, xalqaro soliqqa tortish.

Abstract: This article analyzes the practice of European countries in combating double taxation.

Key words: international tax norms, methods of combating double taxation, tax burden, dividend, tax credit, economic substance priority, international taxation.

Аннотация: В статье анализируется практика европейских стран по борьбе с двойным налогообложением.

Ключевые слова: международные налоговые нормы, методы борьбы с двойным налогообложением, налоговое бремя, дивиденды, налоговый кредит, приоритет экономического содержания, международное налогообложение.

KIRISH

Xalqaro integratsiya jarayonlari va xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayib borayotgani sharoitida ikkiyoqlama soliqqa tortish masalasi dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Ayniqsa, Yevropa davlatlarining bu boradagi tajribasi xalqaro miqyosda soliq siyosatini takomillashtirish va investitsion muhitni yaxshilashda muhim oʻringa ega. Ikki tomonlama soliqqa tortish – bu bir xil daromad yoki aktivga nisbatan ikki va undan ortiq davlat tomonidan soliq solinishi holatidir. Bu esa transchegaraviy investitsiyalar, savdo va ishchi kuchining harakatini cheklashi mumkin. Yevropa davlatlari, xususan Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Italiya, Polsha va boshqa mamlakatlar ushbu muammoni hal etishda samarali mexanizmlarni ishlab chiqqan. Ularning amaliyoti bugungi kunda boshqa davlatlar, jumladan, Oʻzbekiston uchun ham oʻrganishga arzigulik tajriba hisoblanadi. Ushbu mamlakatlar ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish uchun xalqaro bitimlar, soliqni kamaytirish uslublari (kredit metodi, ozod qilish metodi), shaffoflik va maʼlumot almashinuvi kabi yondashuvlarni qoʻllab kelmoqda.

Bugungi kunda Oʻzbekiston ham xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport hajmini oshirish va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan samarali hamkorlik qilishni maqsad qilgan. Biroq, ikkiyoqlama soliqqa tortish holatlari investitsiya oqimlariga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Shu sababli, Yevropa mamlakatlari tajribasini chuqur tahlil qilish, ularning metodologiyalarini oʻrganish va Oʻzbekiston qonunchiligiga moslashtirish dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi doirasida ishlab chiqilgan umumiy soliq siyosati va axborot almashinuvi tizimlari – CRS (Common Reporting Standard), BEPS (Base Erosion and Profit Shifting) kabi tashabbuslar orqali soliqqa oid maʼlumotlarning avtomatik almashinuvi yoʻlga qoʻyilgan. Bu esa soliqlardan boʻyin tovlash holatlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Oʻzbekiston uchun ham shunday tizimlarni joriy etish soliq boshqaruvini zamonaviylashtirishda muhim qadam boʻlishi mumkin. Shu jihatdan qaralganda, mavzu nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. U xalqaro soliq siyosatining samaradorligini oshirish, investorlar uchun ishonchli huquqiy muhit yaratish va iqtisodiy oʻsishni taʼminlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda asosiy tayanch boʻlib xizmat qiladi.

Yevropa davlatlarining ikkiyoqlama soliqqa tortishga qarshi kurashish boʻyicha strategiyasi uch asosiy yoʻnalishga tayanadi:

1. Xalqaro shartnomalar tarmogʻini kengaytirishda Yevropa mamlakatlari oʻzaro hamda uchinchi davlatlar bilan ikki tomonlama soliq bitimlari (Double Taxation Agreements – DTA) orqali soliqqa oid masalalarni tartibga solgan. Ushbu bitimlar quyidagilarni nazarda tutadi:



- soliq to'lovchilar manfaati yo'lida daromadlar ikki marta soliqqa tortilmasligi;
- rezidentlik tamoyili asosida daromad qaysi davlatda soliqqa tortilishi kerakligini aniqlash;
- soliqni kamaytirish yoki ozod qilish mexanizmlarini qo'llash.

2. Soliqni kamaytirish metodlarida Yevropa davlatlarida ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishda ikki asosiy metod qo'llaniladi. Kredit metodi bo'lib, bunda rezident davlatda to'langan xorijiy soliq summasi hisobga olinadi va ichki soliqqa qarshi chegiriladi. Ozodlik metodida esa xorijdan olingan daromad butunlay yoki qisman soliqdan ozod qilinadi. Bu daromadlar ichki soliq bazasiga qo'shilmaydi.

3. Axborot almashinuvi va shaffoflik yuzasidan Yevropa mamlakatlari o'rtasida CRS (Common Reporting Standard) orqali soliq to'lovchilarga oid ma'lumotlar avtomatik tarzda almashiladi. Bu:

- soxta kompaniyalar orqali daromad yashirishning oldini oladi;
- soliqdan bo'yin tovlashni kamaytiradi;
- o'zaro ishonchni mustahkamlaydi.

Yevropa mamlakatlarining ikkiyoqlama soliqqa tortishga qarshi samarali kurashi investorlar uchun ishonchli va barqaror soliq muhitini ta'minlaydi, iqtisodiy o'sish va moliyaviy axborot shaffofligini kuchaytiradi va xalqaro moliyaviy standartlarga mos soliq boshqaruvi shakllantiradi.

O'zbekiston uchun Yevropa davlatlarining tajribasi - ayniqsa, ularning xalqaro shartnomalar, axborot almashinuvi va BEPS chora-tadbirlari asosidagi yondashuvlari - milliy qonunchilik va amaliyotga moslashtirish orqali soliq siyosatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

OECD Model Tax Convention on Income and on Capital (2022 Edition) modeli ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishga oid xalqaro model bo'lib, aksariyat Yevropa davlatlari undan asosiy huquqiy tayanch sifatida foydalanadi. Model konvensiyada daromad manbai, rezidentlik, doimiy vakolatxona, dividend, foiz va royalti soliqlari bo'yicha mezonlar aniq belgilangan. Yevropa davlatlari ushbu konvensiyaga asoslanib o'zaro bitimlar tuzgan. Maqolaning huquqiy poydevorini belgilab beradi. Kredit va ozodlik metodlarining xalqaro tan olingan shakllarini o'zida mujassamlashtiradi.

European Commission Taxation and Customs Union Reports (2020–2023) hisoboti har yili Yevropa Komissiyasi tomonidan chop etiladigan ushbu hisobotlar Yevropa Ittifoqida soliq siyosati, daromadlar, BEPS chorasi va axborot almashinuvi kabi masalalarni yoritadi. Hisobotlar statistik ma'lumotlar, soliq yuki taqsimoti, davlatlararo soliq siyosati koordinatsiyasi bo'yicha aniq tahlillarni beradi. BEPS tashabbusi, Common Reporting Standard (CRS), va avtomatik axborot almashinuvi jarayonlarini chuqur tahlil qilishga yordam beradi.

Lang, M., Pistone, P., Schuch, J., Staringer, C. (2019). "Introduction to European Tax Law on Direct Taxation" asarida Yevropa soliq huquqining asosiy elementlarini tahlil qiluvchi akademik darslik. To'g'ridan-to'g'ri soliqlar, ikkiyoqlama soliqqa tortish va erkin harakatlar tamoyillari yoritilgan. Maqolada ikki tomonlama bitimlar asosidagi qaror qabul qilish, sud amaliyoti va xalqaro soliq huquqi asoslari keng yoritilgan. Teoretik asoslarni mustahkamlash bilan birga, Yevropa Ittifoqi darajasidagi normativ-huquqiy bazani tahlil qiladi.

IBFD Tax Research Platform – European Tax Explorer metodlari xalqaro soliq ilmiy tadqiqotlariga bag'ishlangan platforma bo'lib, unda Yevropa davlatlarining soliq tizimi, shartnomalari va qo'llanilayotgan metodologiyalari bo'yicha ma'lumotlar jamlangan. Har bir davlat bo'yicha kredit va ozodlik metodlarining qo'llanilishi, amaldagi soliq bitimlari va yillik yangiliklar ko'rsatilgan. Amaliy qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Har bir davlatdagi real holatni o'rganishga yordam beradi.

United Nations Practical Manual on Transfer Pricing for Developing Countries (2021 Edition) modelida daromadni boshqa davlatlarga sun'iy ravishda o'tkazish (transfer pricing) orqali soliqlardan bo'yin tovlashga qarshi kurashish metodlari bayon qilingan. Bu manbada Yevropa mamlakatlari tomonidan qo'llaniladigan BEPS 13-punktiga mos ravishda tuzilgan dokumentatsiya va hisobot tizimi yoritilgan. Yevropa davlatlarida iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan soliq siyosati qanday amalga oshirilayotganini anglashga yordam beradi.

Deloitte, KPMG, PwC va EY kompaniyalari tomonidan tayyorlangan yillik soliq hisobotlarida (2020–2024) har bir mamlakatda amaldagi soliq stavkalari, ikki tomonlama bitimlar, BEPS islohotlari va shaffoflik darajasi haqida qisqacha ma'lumotlar. Amaliy jihatdan juda foydali bo'lib, real stavkalar, soddalashtirilgan soliq protseduralari va qonunchilikdagi o'zgarishlar aks etgan. Qisqa, lo'nda va zamonaviy ma'lumotlar asosida soliq siyosatining holatini ko'rsatadi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Soliq qo'mitasi statistik byulletenlarida O'zbekiston Respublikasida xalqaro soliq bitimlari, soliq tushumlari, xorijiy investitsiyalar va soliq yengilliklari haqida ma'lumot beradi. Mahalliy holatni xalqaro tajriba bilan qiyoslash imkonini beradi. O'zbekiston kontekstida Yevropa tajribasini qanday tatbiq qilish mumkinligini baholashga yordam beradi.



Yuqoridagi manbalar orqali ikkiyoqlama soliqqa tortish muammosining nazariy asoslari, Yevropa davlatlari tomonidan qo'llanilayotgan amaliy chora-tadbirlar, xalqaro standartlar va O'zbekiston konteksti mukammal tarzda yoritiladi. Bu manbalar bir-birini to'ldiradi va mavzuni kompleks yoritishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqola yozish jarayonida tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvlariga e'tibor qaratildi. Xususan, tahliliy yondashuv, tarixiy rivojlanish ketma-ketligini hisobga olish hamda mantiqiy asoslash usullari qo'llandi. Shuningdek, umumiydan xususiyya (deduksiya) va xususiyydan umumiy xulosaga (induksiya) qarab fikr yuritish orqali ilmiy natijalar ishlab chiqildi. Ma'lumotlarni tahlil qilish va ularni bir butun tizimga birlashtirish (analiz va sintez), shuningdek, mavjud tajribalarni qiyosiy tahlil qilish va selektiv tanlov asosida tahlil qilish orqali tadqiqot chuqurlashtirildi. Shu bilan birga, monografik tahlil hamda ma'lumotlarni guruhlash orqali mavzuning ilmiy asoslari mustahkamlandi.

TAHLIL VA NARIJALAR

Yevropa davlatlari ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishda bir nechta kompleks metodlardan foydalanadi. Bu metodlar asosan quyidagilarga tayanadi:

- huquqiy asos sifatida ko'pchilik Yevropa davlatlari o'zaro ikki tomonlama soliq bitimlarini tuzgan bo'lib, ular asosan OECD Model Soliq Konvensiyasiga tayangan. Ushbu bitimlar orqali daromad va kapitalga nisbatan soliq olish vakolati aniq taqsimlanadi.

Asosiy metodlarga keladigan bo'lsak soliq krediti (Tax Credit): Rezident davlat xorijiy daromaddan undirilgan soliqni o'z soliq majburiyatidan chegirib tashlaydi. Soliqdan ozod qilish (Exemption): Xorijdagi daromadni ichki soliq bazasiga qo'shmaydi. Yevropa Ittifoqi qonunchiligida ichki bozor erkinligini ta'minlash uchun ayrim hollarda ikkiyoqlama soliqqa tortishga qarshi umumiy yondashuvlar ishlab chiqilgan, xususan, dividend va foiz daromadlarining ikki marta soliqqa tortilishini oldini olishga qaratilgan direktivalar mavjud.

Axborot almashinuvi va BEPS chorasi yuzasidan Yevropa mamlakatlari ikkiyoqlama soliqqa tortishni faqat soliq bitimlari orqali emas, balki ma'lumot almashinuvi mexanizmlari orqali ham tartibga solmoqda.

Bular CRS (Common Reporting Standard) orqali avtomatik axborot almashinuvi tatbiq etilmoqda. BEPS (Base Erosion and Profit Shifting) dasturining 6, 7, va 13-aksiyalari orqali soliqdan bo'yin tovlash va sun'iy daromad ko'chirish amaliyotlariga qarshi kurash olib borilmoqda.

Bu yondashuvlar soliq shaffofligini oshirish va korporativ soliq intizomini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Amaliy misollar va natijaviylikka e'tiborni qaratganimizda 1-jadval ma'lumotlarini umimlashtirishga erishdik (1-jadval).

1-jadval. Yevropa mamlakatlarida ikkiyoqlama soliqqa tortishga qarshi kurashishda qo'llaniladigan metodlar tahlili¹.

Davlat	Qo'llaniladigan metod	Axborot almashinuvi tizimi	BEPS ishtiroki	Natija
Germaniya	Kredit va ozodlik	CRS asosida avtomatik	Ha	Investorlar uchun barqarorlik
Niderlandiya	Asosan ozodlik	Yuqori darajada	Ha	Holding kompaniyalar oqimi
Italiya	Kredit	Mamlakatlar bilan almashuv	Ha	Soliq bazasining kengayishi
Polsha	Kredit	BEPS bilan integratsiyalashgan	Ha	Chet el investitsiyalarining ortishi

Germaniyada ikkala usul (kredit va ozodlik) mos ravishda bitimga qarab qo'llaniladi. Yondashuv kuchi yuqori huquqiy aniqlik va ma'lumot almashinuvi. CRS tizimi orqali avtomatik axborot almashuvi investorlar daromadlarini yashirish imkoniyatini keskin kamaytirgan. Soliq shaffofligi va ishonch ortgani sababli chet el investitsiyalari uchun barqaror muhit vujudga kelgan.

Niderlandiyada k'p hollarda daromadni soliqdan ozod qilish usuli qo'llaniladi. Xususiyatli tomoni Niderlandiya xolding kompaniyalar uchun eng qulay yurisdiksiyalardan biri hisoblanadi. Axborot tizimini shakllanishi yuqori darajadagi CRS, FATCA, BEPS choralari tatbiq etilgan. Natijada korporativ guruhlar o'z bosh ofislarini Niderlandiyada joylashtirishga intiladi - bu esa davlatga yirik biznes oqimini keltirmoqda.

¹ Muallif tomonidan tayyorlandi.



Italiyada asosan soliq krediti qo'llaniladi - xorijdan olingan daromad ustidan to'langan soliq Italiyada chegirib tashlanadi. Axborot almashinuvida faol ravishda CRS orqali boshqa davlatlar bilan real vaqt rejimida axborot almashiladi. Natijasi sifatida soliq bazasi kengaydi, davlat ko'proq daromad manbalarini aniqlay olmoqda. BEPS choralari orqali transfer pricing muammolari cheklanmoqda.

Polshada soliq krediti tizimi afzallik bilan ishlatiladi. BEPS tashabbuslariga to'liq integratsiyalashgan ayniqsa, daromadning iqtisodiy mohiyatini aniqlash va soxta operatsiyalarni aniqlashda faol. Natijasi sodiq va shaffof soliq siyosati orqali xorijiy investitsiyalarning o'sishi kuzatilmoqda. Raqamli iqtisodiyotga mos islohotlar olib borilgan.

Kredit metodining afzalligi - soliq daromadlarini yo'qotmaslik; ozodlik metodining afzalligi – soddalik va investorga qulaylik. CRS (Common Reporting Standard) – barcha davlatlarda universal shaffoflik mexanizmi sifatida ishlamoqda. Bu investorlarning soliqqa oid ma'lumotlarini yashirish imkoniyatini kamaytirdi. BEPS choralari – daromadni sun'iy ravishda boshqa yurisdiksiyalarga o'tkazish orqali soliqlardan qochish hollari kamaymoqda. Qulayligi Germaniya va Niderlandiya tajribasi O'zbekiston uchun namunaviy model sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Bu davlatlarda soliq siyosatining barqarorligi, huquqiy aniqlik va ishonchli almashuv tizimi mavjud.


Yevropa tajribasining asosiysi soliq bitimlari orqali daromadga egalik qiluvchi davlat va soliq solinadigan davlat aniq belgilanadi. Bu investitsiya muhitini yaxshilaydi. Solish va tanlov imkoniyati: Davlatlar ikki metodni – kredit yoki ozodlikni – shartnomalarga qarab moslab qo'llaydi. Bu moslashuvchanlik yuqori darajadagi fiskal siyosat yuritish imkonini beradi. Integratsiyalashgan yondashuv bo'yicha Yevropa mamlakatlari soliq sohasidagi xalqaro standartlarni ichki qonunchilikka singdirgan. Bu esa global soliq tartibining shakllanishiga hissa qo'shmoqda.

Yevropa davlatlari amaliyoti asosida O'zbekiston quyidagi yo'nalishlarda natijadorlikka erishishi mumkin: bitimlar tarmog'ini kengaytirish orqali soliq bitimlari sonini ko'paytirish orqali investorlar uchun ishonchli muhit yaratish;

CRS tizimini bosqichma-bosqich joriy etish bilan soliqdan bo'yin tovlashga qarshi samarali choralarni amalga oshirish.

BEPS dasturiga integratsiyalashish: Xalqaro standartlarga muvofiq soliq islohotlarini chuqurlashtirish.

Yevropa davlatlari tomonidan qo'llanilgan metodologiyalar, nafaqat ikkiyoqlama soliqqa tortish muammosini bartaraf etishga xizmat qilgan, balki soliq sohasida global shaffoflik va adolat mezonlarini shakllantirishda asosiy o'rin egallaydi. Ushbu tajriba O'zbekiston uchun xalqaro soliq munosabatlarini takomillashtirishda muhim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.



1.Rasm. Yevropa davlatlarida ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasining natijadorligi²

1-Rasmdan olingan tahliliy natijalarga ko'ra Germaniya eng yuqori natijadorlikka ega bo'lib, bu mamlakatning har ikki metodni (kredit va ozodlik) moslashuvchan ravishda qo'llashi, CRS orqali avtomatik axborot almashuvi

2 Muallif tomonidan tayyorlandi.



va kuchli soliq boshqaruvi bilan bog'liq. Niderlandiya investitsion xolding kompaniyalar uchun qulay huquqiy va soliq muhit yarata olgani sababli yuqori samaradorlikka erishgan. Soliqdan ozod qilish metodining ustunligi bu yerda yaqqol ko'zga tashlanadi. Italiya va Polsha kredit metodidan foydalanadi. Ularning natijadorligi nisbatan pastroq bo'lsa-da, BEPS tashabbuslari va axborot almashinuvi mexanizmlari orqali sezilarli yutuqlarga erishgan.

2-jadval. Yevropa davlatlarida ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishda axborot almashinuvinining imkoniyatlar tahlili³.

Davlat	Metod	Axborot almashinuvi	BEPS ishtiroki	Natijadorlik (1-10)
Germaniya	Kredit va ozodlik	CRS asosida avtomatik	Ha	9
Niderlandiya	Asosan ozodlik	Yuqori darajada	Ha	8
Italiya	Kredit	Mamlakatlar bilan qo'shma almashuv	Ha	7
Polsha	Kredit	BEPS bilan integratsiyalashgan	Ha	7

Metod yondashuvida Germaniya ikkala usuldan foydalanadi (kredit va ozodlik), bu esa mamlakatga bitimga qarab moslashish imkonini beradi. Niderlandiya daromadni soliqdan ozod qilishni afzal ko'radi, bu esa soddalik va qulaylikni ta'minlaydi. Italiya va Polsha esa faqat kredit metodidan foydalanadi, bu esa daromad ustidan xorijda to'langan soliqni ichki soliqlardan chegirib tashlash orqali ikkiyoqlama soliqni kamaytiradi. Soliqdan ozod qilish metodlari (ayniqsa, Niderlandiyada) investorlar uchun yengillik tug'diradi. Ammo Germaniya kabi yondashuvni moslashtirgan davlatlar eng yuqori natijani ko'rsatmoqda.

Axborot almashinuvi tizimi bo'yicha esa CRS (Common Reporting Standard) Germaniyada to'liq ishlaydi – avtomatik tarzda real vaqt axborot almashiladi. Niderlandiya va Polsha yuqori darajada avtomatlashtirilgan va BEPSga integratsiyalashgan. Italiya esa mamlakatlar bilan alohida bitimlar orqali ma'lumot almashadi, bu esa axborot oqimini cheklashi mumkin. Avtomatik, xalqaro tan olingan standartga asoslangan axborot almashinuvi yuqori natijadorlikni ta'minlamoqda.

BEPS dasturidagi ishtirok yuzasidan barcha to'rtta davlat BEPS (soliq bazasining yemirilishi va foydaning boshqa yurisdiksiyaga o'tkazilishi) qarshi choralarda faol ishtirok etadi. Bu ishtirok soliq qochish holatlarini kamaytirib, shaffoflikni oshirgan. BEPSga qo'shilish – ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish bo'yicha jahon standartlari bilan moslashuvni ta'minlaydi.

Natijadorlik darajasini tahlil qilganimizda Germaniya – 9 ball: metodlar moslashuvi, yuqori texnologik almashuv, va huquqiy aniqlik orqali yetakchilik qilmoqda. Niderlandiya – 8 ball: korporativ investorlar uchun qulay sharoitlar yaratgan. Italiya va Polsha – 7 ball: Kredit metodining chegaralangan samarasi va almashuvdagi nisbiy murakkablik seziladi. Metodlar turli, lekin huquqiy moslashuvchanlik + avtomatik almashuv + BEPS ishtiroki = yuqori natijadorlik.

Germaniya va Niderlandiya amaliyotlari O'zbekiston uchun eng namunaviy tajriba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, ularning soliq yondashuvi moslashuvchanligi, axborot almashinuvi tizimining avtomatlashtirilganligi, xalqaro BEPS choralari bilan uyg'unligi, ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishda eng katta muvaffaqiyatlarni ta'minlamoqda.

Soliqdan ozod qilish (exemption) metodini afzal ko'ruvchi davlatlarda investorlar uchun soddalik va barqarorlik kuchliroq ta'minlangan. CRS va BEPS kabi xalqaro standartlarga qo'shilgan mamlakatlar soliq shaffofligini oshirib, chet el investitsiyalarini jalb etishda ustunlikka erishmoqda. Germaniya tajribasi – O'zbekiston uchun eng namunaviy model bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu mamlakat metodlar muvozanatini saqlagan, huquqiy aniqlikni ta'minlagan va xalqaro axborot tizimlariga faol integratsiyalashgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish xalqaro sarmoya muhitini yaxshilashda muhim omillardan biridir. Bu masala Yevropa davlatlarida murakkab yondashuvlar orqali hal etilmoqda. Germaniya va Niderlandiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, metodlarning moslashuvchanligi (kredit va ozodlik metodlari), shaffof axborot almashinuvi (CRS, BEPS) va xalqaro hamkorlik yuqori natijadorlikka olib kelmoqda. Kredit metodi ba'zi davlatlar (Polsha, Italiya)da keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, u soddalik va investitsiya jalb qilish nuqtai nazaridan ozodlik metodiga nisbatan kamroq ustunlikka ega. Xalqaro standartlar asosida avtomatik axborot almashuvi tizimi ikkiyoqlama soliqqa tortishga barham berishda hal qiluvchi vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bu soliq qochish holatlarini aniqlashni soddalashtiradi.

3 Muallif tomonidan tayyorlandi.



Taklif sifatida O'zbekiston uchun kompleks metodologik yondashuv ishlab chiqish va kredit va ozodlik metodlarining har ikkisini xalqaro shartnomaga qarab moslashuvchan qo'llash amaliyotini joriy etish. Bu investorlar uchun ishonchli va qulay soliq muhitini yaratadi. CRS (Common Reporting Standard) tizimiga qo'shilish yuzasidan axborot almashinuvi sohasida xalqaro standartlarni tatbiq etish orqali soliqqa oid ma'lumotlarni avtomatik ravishda almashish imkonini beradi. Bu O'zbekistonni xalqaro moliyaviy hamjamiyatga ishonchli hamkor sifatida namoyon etadi.

BEPS dasturida faollikni kuchaytirish orqali soliq bazasining yemirilishi va foydaning boshqa yurisdiksiyalarga ko'chirilishiga qarshi kurashishda xalqaro tashabbuslarga faol hissa qo'shish. Bu orqali O'zbekiston o'zining soliq siyosatini barqaror va halol yurisdiksiya sifatida tanitadi. Davlatlararo soliq shartnomalarini qayta ko'rib chiqish: Yangi, zamonaviy va investorlar uchun qulay shartnomalarni ishlab chiqish. Soliqdan ozod qilish va chegirma berish mezonlarini aniq va shaffof tarzda belgilash. Milliy soliq qonunchiligini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishda soliqqa oid milliy qonun hujjatlarini ikkiyoqlama soliqqa tortish masalasida aniq, tartibli va xalqaro konvensiyalar bilan muvofiqlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Miles Dead, Richard Williams, Deloitte Discovery Global Leader., Features – A Challenging Move on the International Stage: Zero Withholding on Direct Dividends in the New US-UK Tax Treaty., Michael Kobetsky, International Taxation of Permanent Establishments Principles and Policy. Australian National University College of Law.2011
2. Reuven S. Avi-Yonah,»Double Tax Treaties: An Introduction.» In The Effect of Treaties on Foreign Direct Investment: Bilateral Investment Treaties, Double Taxation Treaties and Investment Flows, edited by K. P. Sauvant and L. E. Sachs, 99-106. Oxford: Oxford Univ. Press, 2009.
3. Richard L. Doernberg, Overriding tax treaties:The USA Prespective, 9 Emory Int'l L.Rev.71.71(1995).
4. Roy Saunder, Understanding Double Tax Treaties, International Business Structuring Association (2014), Article 14. Published online:31 July 2014, available at <http://www.istructuring.com/knowledge/article/double-tax-treaties/> (last access: 11 May 2017)



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>